



Modern approaches to applying audiovisual materials in education

Jasurbek BEGMURADOV¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 25 June 2025

Available online

15 July 2025

Keywords:

audiovisual materials,
innovative approach,
CLIL,
game-based lessons,
media literacy.

ABSTRACT

This article examines the effectiveness of using audiovisual materials in education. It also describes methods for presenting these audiovisual materials in accordance with contemporary requirements, providing examples.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4-pp9-12>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ta'limda audiovizual materiallarni qo'llash bo'yicha zamonaviy yondashuvlar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

audiovizual materiallar,
innovatsion yondashuv,
CLIL,
o'yinlashtirilgan dars,
media savodxonlik.

Ushbu maqolada audiovizual materiallarni ta'limda qo'llanilishining samaradorligi haqida so'z borgan. Shuningdek, ushbu audiovizual materiallarni zamonamizga mos shaklda taqdim qilish yo'llari misollar bilan tushuntirilgan.

Современные подходы к аудиовизуальным материалам в образовании

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

аудиовизуальные материалы,
инновационный подход,
CLIL,

В данной статье рассматривается эффективность использования аудиовизуальных материалов в образовании. Также описаны методы представления этих аудиовизуальных

¹ PhD student, Namangan State University. E-mail: jbegmurodov26@gmail.com

игровые уроки,
медийная грамотность.

материалов в соответствии с требованиями современности на
примерах.

KIRISH

Jadallik bilan rivojlanib borayotgan dunyoda zamonaviy texnologiyalar kundalik hayotimizda beqiyos o'rin tutmoqda. Ba'zan ularsiz hayot zerikarli va to'xtab qolgandek tuyuladi. Ana shunday texnologiyalarning ta'siri ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Inson sifatida o'z-o'zini rivojlantirish va insoniyat manfaati uchun texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir. Ta'limga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilim olish sifatini oshirishning navbatdagi qadamidir. Sinflarda qo'llanilayotgan texnologiyalar til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qilish imkoniyatini beradi, deb yozadi tadqiqotchilar Jafar Rahmati, Siros Izadpaxan o'zlarining maqolasida. [1:7]. Eng qadimiy o'qitish texnologiyalaridan biri doska va bo'r bo'lgan bo'lsa, 1877-yil Tomas Edison tomonidan ixtiro qilingan fonograf ta'lim sohasida tub burilish yasadi. Fonograflar eshitish orqali o'rganish imkoniyatini yaratdi, bu esa o'quvchilarga ona tilini eshitish va takrorlash imkoniyatini berdi [2]. Avvaliga o'z ona tilidagi matnlarni eshitish maqsadida ishlatilgan fonograflar keyinchalik til o'rganishdagi ahamiyati sababli til o'qitishga xizmat qildi. Endilikda audiovizual materiallarning sinfga kiritilishi quyidagicha sodir bo'lmoqda: proyektorlar, radioeshittirish apparatlari va slayd-shou taqdim etuvchi aqlli televizorlar. Bunday vositalar ko'plab maktablarda standart uskunaga aylandi, bu esa o'quvchilarga kontekstda haqiqiy til bilan tanishishni taklif qiladi [2].

METODOLOGIYA

Til o'rganishda audiovizual materiallardan foydalanishning turli afzalliklari mavjud. Birinchidan, yosh o'rganuvchilarni kelajakka, ya'ni zamonaviy rivojlanishga tayyorlashga yordam beradi. Raqamli vositalarni qo'llashdagi savodxonlik ham professional, ham akademik muvaffaqiyat uchun zarurdir [3:16]. Ikkinchidan, audiovizual materiallardan foydalanish ta'lim natijalarini yaxshilashga olib kelishi mumkin. Masalan, kompyuter yordamida til o'rganish (CALL) dasturi til ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Uchinchidan, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun ham xizmat qilishi mumkin. Sinfni rejalashtirish, baholash va kasbiy rivojlantirish uchun materiallarni taqdim etish orqali o'qituvchilarga ham yordam berishi mumkin. Buning yordamida o'qituvchilarda zamonaviy ta'lim usullari va texnologiyadagi o'zgarishlardan xabardor bo'lish zarurati tug'iladi. To'rtinchi afzalligi uning inklyuziv ta'lim tizimiga mosligi. Maxsus ta'lim talab etuvchi o'quvchilar uchun yordam ko'rsatishda samarali sanaladi.

Audiovizual materiallar jumlasiga internet lug'atlar, grammatika tekshiruvlari va til o'rgatuvchi veb-saytlar kabi bir qator audiovizual dasturlar ham kiradi. Bunday materiallardan sinfda foydalanish ta'lim yutuqlarini oshirish, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, inklyuzivlikni oshirish, hamkorlikni rag'batlantirish, o'rganishni shaxsiylashtirish, o'quvchilar motivatsiyasini oshirish va resurslardan foydalanishni ta'minlash uchun juda dolzarb va muhimdir. O'quvchi yoshlarga ko'proq amaliyot vaqtini berishdan tashqari, bu an'anaviy o'qitish usullarini ham yaxshilaydi.

MUHOKAMALAR VA NATIJALAR

Zamonaviy til o'qitish metodlaridan biri sanalgan CLIL (Content and Language Integrated Learning) quyidagicha izohlanadi: *content*-soha, *language*-til, *integrated learning*-integrallashgan ta'lim. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi 1 kunda 4-5 soat

davomida sinfdagi o'quvchilar bilan muloqotda bo'ladi, chet til o'qituvchisi esa haftada 2 soat o'quvchilar bilan muloqot qiladi. Ingliz tili o'qituvchisidan ko'ra sinf rahbarining bolaga ta'sir doirasi kuchliroq bo'ladi. Boisi, boshlang'ich sinf o'quvchilari har kuni tabiiy fan, matematika, ona tili va o'qish savodxonligi, texnologiya, tarbiya, tasviriy san'at fanlarida sinf rahbarlari bilan muloqotga kirishadilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi fanlardan o'tiladigan darsni to'g'ri va samarali rejalashtirgan holda kun davomida 10 tagacha ingliz tilida yangi so'zni o'rgata olish va nutqida qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatiga egadir. Mana shu afzalliklarni inobatga olgan holda boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'ziga birlashtirilgan sinfdan matematika fani, tabiiy fanlar, ona tili va o'qish savodxonligi, tarbiya fanlarini o'tish jarayonida CLIL texnologiyasidan foydalanishi o'rinli bo'ladi [4:61].

CLIL yondashuvi asosida til va mazmun integratsiyalashgan holda o'rganishda audiovizual vositalardan foydalanish o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Mahisto va uning hamkasblari ta'kidlaganidek, vizual vositalar orqali til o'rganish nafaqat tilni o'zlashtirishni osonlashtiradi, balki fanning mazmunini ham samarali ochib berishga xizmat qiladi [5:216]. Bundan tashqari, so'nggi yillarda keng tarqalgan "teskari sinf" (flipped classroom) modeli orqali dars vaqtining ko'proq qismini amaliy faoliyatga ajratish mumkin. Ushbu yondashuv o'quvchilarga sinfdan tashqari materiallar bilan tanishib chiqish imkonini beradi. Dars vaqtida esa muhokama, rolli o'yinlar, kabi interaktiv usullarga ko'proq e'tibor qaratiladi va bu bilan mustaqil o'rganishga rag'batlantiriladi.

"Teskari sinf"da (flipped classroom) o'quvchilar o'zlarining til bilish darajasini oshirishi mumkin bo'lgan materiallarga osonroq kirishadi. O'quvchilar kontentni kerak bo'lganda tez-tez ko'rib chiqishlari mumkin, chunki ular tez-tez interfaol o'yinlar, viktorinalar va multimedia kontentli onlayn audiovizual materiallar bilan ishlaydilar.

Til o'rganishda o'yinlar va virtual texnologiyalarni joriy etish o'quv jarayonini yanada interaktiv kechishiga sabab bo'ladi. Professor Kris Dede(Chris Dede) vizual stimullar o'quvchining emotsional va motivatsion holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, deb yozadi o'zining maqolasida [6:66-69]. O'yinli texnologiyalar orqali mashg'ulotlar takrorlanish ko'rsatkichi sezilarli darajada yaxshilanadi va tilni tabiiy muhitda qo'llanilishi ortadi.

Media savodxonlikni shakllantirishda esa hujjatli filmlar, real voqealarga asoslangan videolar va zamonaviy axborot vositalari manba sifatida xizmat qilmoqda. Kontent orqali til o'rganish nafaqat grammatikani, balki madaniy kontekstni ham chuqur o'zlashtirishga yordam beradi [7:384].

Mobil ta'lim esa ta'lim jarayonining moslashuvchanligini oshirib, har qanday joy va vaqtda til o'rganish imkoniyatini taqdim etmoqda. Mobil ta'lim, ayniqsa, qishloq hududlarida rasmiy ta'lim resurslari cheklangan holatlarda muhim vosita sifatida ishlatilmoqda, deb yozadi Traxler[8]. Mobil platformalar interaktiv va adaptiv algoritmlar asosida ishlashi natijasida o'zlariga mos darajadagi mashqlarni bajara oladilar. Bu esa shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'minlab, o'quvchilarning yutuqlarini kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, Babbel, Duolingo, Memrise kabi platformalar orqali til o'rganish mobil qurilmalar yordamida kunning istalgan vaqtida amalga oshirilmoqda. O'quvchilar, ayniqsa, yosh til o'rganuvchilar ota-onalari, ustozlari, aka-opalar yordami bilan mazkur audiovizual materiallar bilan tanishish imkoniga ega bo'lmoqdalar. Muhimi, endi til o'rganish ular uchun zerikarli mashg'ulot emas.

XULOSA

Umuman olganda, zamonamizga mos tarzda yaratilgan audiovizual materiallarning ta'limda qo'llanilishi, ayniqsa, CLIL, "teskari sinf" (flipped classroom), o'yinli va masofaviy mobil yondashuvlar asosida o'quvchilar o'zlari tanlagan uslubda, qulay sharoitda va yuqori motivatsiya bilan til o'rganishlari mumkin bo'ladi. Ushbu texnologiyalarni inklyuziv ta'limga ham ijobiy ta'siri borligi sababli ularni ta'lim tizimiga keng joriy etish dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmati J., Izadpanah S., Shahnavaz A. A meta-analysis on educational technology in English language teaching // Language Testing in Asia. – 2021. – Vol. 11. – P. 7. – DOI: <https://doi.org/10.1186/s40468-021-00121-w>.
2. Ghavifekr S. Teaching and learning with Technology: Effectiveness of ICT integration in schools // International Journal of Research in Education and Science (IJRES). – 2015. – Vol. 1, No. 2. – P. 175–191. – URL: <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1105224.pdf>.
3. Pasternak D.L., Hallman H., Caughlan S., Renzi L., Rush L.S. Learning and teaching technology in English teacher education: Findings from a national study // Contemporary Issues in Technology and Teacher Education. – 2016. – Vol. 16, No. 4. – P. 16. – URL: <https://citejournal.org/volume-16/issue-4-16/english-language-arts/learning-and-teaching-technology-in-english-teacher-education-findings-from-a-national-study/>.
4. Qurbonova M.F. CLIL – zamonaviy yondashuv sifatida // Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologik-pedagogik jihatlarini Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – 2023-yil 2-iyun. – B. 60–61.
5. Mehisto P., Marsh D., Frigols M. J. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. – Oxford: Macmillan Education, 2008. – 216 p.
6. Dede C. Immersive interfaces for engagement and learning // Science. – 2009. – Vol. 323, No. 5910. – P. 66–69.
7. Potter W. J. Media Literacy. – 4th ed. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2010. – 384 p.
8. Traxler J. Learning in a Mobile Age // International Journal of Mobile and Blended Learning. – 2009. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–12.